

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
Boshqaruvining
2025-yil ____ - ____ dagi
– sonli qaroriga
__-ILOVA

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATBda bank xizmatlari bo‘yicha tariflarga
kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

1. I BO‘LIM. “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda bank xizmatlari bo‘yicha tariflarda:

1) 1-bob. Yuridik shaxslar va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun xizmatlar, 1-§. Milliy valyutadagi amaliyotlarining 4-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

T/r	Amaliyot turlari	Miqdor	Izoh
1	Bank hisobvaraqlari bo‘yicha mablag‘larni o‘tkazish (debet aylanma) - <u>Standart</u> - <u>Eksportyor</u> (eksport bilan shug‘ullanuvchi korxonalar uchun) Imtiyozli Korporativ va O‘rta biznes segmentidagi mijozlarning faqatgina (boshqa bankdan) jalb qilinadigan va quyidagi shartlarda ochiladigan hisobvaraqlar uchun 1 bosqich (60 kalendar kunigacha bo‘lgan muddatga)	aylanmadan 0,3 % va undan yuqori aylanmadan 0,2 % va undan yuqori 0 % va undan yuqori	1) Bir mijozning “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimidagi bir hisobvarag‘idan boshqa hisobvarag‘iga pul mablag‘larini o‘tkazish (shu jumladan, kredit va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni so‘ndirish, bank komissiyasiga o‘tkazilgan mablag‘lardan debet aylanmalari) uchun vositachilik haqi ko‘zda tutilmaydi. 2) Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning hisobvaraqlaridagi mablag‘larni soliq to‘lovlari va boshqa majburiy to‘lovlar (Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘i, Davlat maqsadli jamg‘armalari, Bojxona bojlari) hisobvarag‘iga o‘tkazishda to‘lov ko‘zda tutilmaydi. 3) 23204, 23212, 23214, 23218, 23224, 23226, 23228 va 23410 hisobvaraqlari bo‘yicha debet aylanmalari uchun vositachilik haqi miqdorini bank tarmog‘i mustaqil ravishda belgilashi mumkin. 4) Bank tarmoqlari tomonidan mijozning hisobvarag‘idan mablag‘lar bevosita “Bank-mijoz”, “Mobil banking” va “SQB Business” dasturiy ta‘minotlari orqali o‘tkaziladigan debet aylanmalari uchun vositachilik haqi — 0,1 foiz kamaytirilgan holda olinishi mumkin. <i>(debet aylanmalari 0,3 % va undan past qilib o‘rnatilgan holatlar bundan mustasno).</i> 5) Mablag‘larni konvertatsiya qilish maqsadida blok hisobvarag‘iga (22613)

	2 bosqich (1 variant) 1-bosqich muddati tugashi bilan ushbu muddat ichida mijoz hisobvaraqlari bo'yicha mavjud aylanmalarga (ichki o'tkazmalarni hisobga olmagan holda) ko'ra: - 5 mlrd. so'mdan – 7 mlrd. so'mgacha - 7 mlrd. so'mdan – 10 mlrd. so'mgacha - 10 mlrd. so'mdan yuqori 2 bosqich (2-variant) 1-bosqich bo'yicha xizmat ko'rsatish muddati tugagandan so'ng ushbu muddat mobaynida kun oxiriga mijoz hisobvaraqlari bo'yicha quyidagicha miqdorda eng ko'p qoldiq qolgan taqdirda: - 500 mln. so'mdan 1 mlrd. so'mgacha - 1 mlrd. so'mdan yuqori 10 mlrd. so'mgacha - 10 mlrd. so'mdan yuqori	aylanmadan 0,15 % 0,1 % 0,05 % aylanmadan 0,2 % 0,1 % 0,05 %	o'tkazilishida debet aylanma uchun bank xizmat haqi miqdori bank tarmog'i tomonidan mustaqil belgilanadi. Mijozga xizmat ko'rsatish shartnomasida "Imtiyozli" tarifining "1 va 2-bosqich" shartlari oldindan ko'zda tutiladi. Mijozning hisobvaraqlari bo'yicha faqatgina vositachilik haqi undiriladigan aylanmalari hisobga kiritiladi. 60 kunlik xizmat ko'rsatish ya'ni 1-bosqich muddati tugagandan so'ng, debet aylanmalari bo'yicha vositachilik haqi miqdori tegishli stavkalarga o'tkaziladi. 1-bosqich bo'yicha xizmat ko'rsatish muddati mobaynida ma'lum bir kunning oxirida mijozning milliy valyutadagi (kod 000) hisobvarag'idagi eng ko'p mablag'lar qoldig'i hisobga olinadi
--	---	--	--

2) 1-bob. Yuridik shaxslar va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun xizmatlar, 1-§. Milliy valyutadagi amaliyotlar quyidagi mazmundagi 16¹-band bilan to'ldirilsin:

T/r	Amaliyot turlari	Miqdor	Izoh
16 ¹	Maqsadsiz kredit mahsulotlari doirasida ajratilgan kredit mablag'lari hisobidan boshqa maqsadlar uchun naqd pul mablag'lari berilishi	summadan 3%	Milliy valyutada ajratilgan kreditlar doirasida berilgan naqd pullar

3) 1-bob. Yuridik shaxslar va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun xizmatlar, 7-§. Boshqa xizmatlar quyidagi mazmundagi 5,6 va 7-bandlar bilan to'ldirilsin:

T/r	Amaliyot turlari	Miqdor	Izoh
5	Maqsadsiz kredit mahsulotlari doirasida ajratilgan kreditlarni boshqa maqsadlar uchun bank plastik kartalariga o'tkazish: - "O'zsanoatqurilishbank" ATBda ochilgan plastik kartani to'ldirish uchun - Boshqa banklarida ochilgan plastik kartani to'ldirish uchun	o'tkazma summasidan 3% o'tkazma summasidan 5%	Plastik kartalarni to'ldirish uchun 23120 hisob raqamiga o'tkazilgan mablag'lar
6	Mijozlarning talabiga ko'ra individual tartibda bank tariflarini belgilash yuzasidan Bank mahsulotlarini boshqarish kichik qo'mitasi tomonidan ijobiy xulosa berish	BHMning 1 barobari + QQS	Faqatgina Mikro va kichik biznes mijozlari uchun amal qiladi
7	Bankning hamkor tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlardan foydalanish uchun	oylik abonent to'lovi 50 000 so'm+QQS	Hamkor tashkilotlar ro'yxati bankning rasmiy saytiga joylashtirib boriladi

2. II BO‘LIM. “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda bank xizmatlari bo‘yicha paket xizmatlarida:

1) 1-bob. “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda Mikro va kichik biznes subyektlari uchun xizmat ko‘rsatish paketlarida:

1-§. nomidagi “Super” degan so‘z “Business” degan so‘z bilan almashtirilsin;

2-§. nomidagi “Yengil start” degan so‘zlar “Start” degan so‘z bilan almashtirilsin;

5-§. nomidagi “VIP” degan so‘z “Global” degan so‘z bilan almashtirilsin;

**Boshqaruv Raisi
o‘rinbosari :**



S.Abdualiev

№ 501

2025 yil «20» «oktabr»

kelishuvchilar: D.Shayakubov, Y.Soy, A.Ravshanov, K.Urakov, A.Yoqubjonov, D.Mamadaliyev, D.Shamirzayev, A.Abdumajidov, F.Xasanov, X.Abdullayev, J.Ibragimov

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=pL42qF76&id=d21639a6-eed1-4321-b29c-0230c07b391a>